

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI

To‘rayev Baxtiyor Ergashevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

dotsent, i.f.f.d., PhD

ORCID 0000-0001-8026-8186

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyati iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar va tumanlar kesimidagi iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining kamayishi, sanoat va xizmatlar ulushining ortishi asosida iqtisodiyotning diversifikatsiyalanish jarayoni baholandi. Tasviriy statistika hamda proporsional taqsimlash usullari yordamida hududiy rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy o‘shishning barqaror yo‘nalishlarini va hudud iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: yalpi hududiy mahsulot, diversifikatsiya, tarkibiy o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘shish, tasviriy statistika, proporsional taqsimlash, Surxondaryo viloyati, hududiy rivojlanish.

Аннотация

В исследовании были проанализированы структурные изменения экономики Сурхандарьинской области и показатели экономического роста в разрезе районов. На основе снижения доли сельского хозяйства и увеличения вклада промышленности и сферы услуг была оценена диверсификация региональной экономики. С использованием методов описательной статистики и пропорционального распределения выявлены тенденции территориального развития. Полученные результаты подтвердили устойчивые направления экономического роста и процессы структурной трансформации экономики региона на современном этапе развития.

Ключевые слова: валовой региональный продукт, диверсификация, структурные изменения, экономический рост, описательная статистика, пропорциональное распределение, Сурхандарьинская область, региональное развитие.

Abstract

This study analyzed structural changes in the economy of Surkhondaryya region and economic growth indicators across its districts. The diversification process was evaluated through the declining share of agriculture and the increasing contribution of industry and services within the gross regional product. Descriptive statistics and proportional allocation methods were applied to identify regional development trends. The findings confirmed stable patterns of economic growth and ongoing structural transformation of the regional economy. The results also highlighted the changing sectoral composition and development dynamics of the region.

Keywords: gross regional product, diversification, structural change, economic growth, descriptive statistics, proportional allocation, Surkhondaryya region, regional development.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida hududlarning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash, ularning mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, agrar yo'nalishga ixtisoslashgan hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ulushini oshirish bugungi kungi makroiqtisodiy siyosatning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Surxondaryo viloyati misolida tarkibiy o'zgarishlarning dinamikasini o'rganish, iqtisodiy modelning an'anaviy agrar xarakterdan zamonaviy sanoatlashgan va xizmat ko'rsatishga asoslangan modelga o'tish qonuniyatlarini va tizimli trendlarini fundamental jihatdan anglash imkonini beradi.

Hududiy iqtisodiyot faqatgina umumiy agregat ko'rsatkichlar bilan emas, balki tumanlar kesimidagi chuqur nomutanosibliklar va o'sish qonuniyatlari orqali reallikni aks ettiradi. Viloyat tarkibidagi tumanlarning iqtisodiy faolligini proporsional taqsimlash hamda tasviriy statistika usullari yordamida baholash, har bir hududning real o'sish drayverlarini va tizimli sakrashlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tumanlar darajasidagi YaHM o'sish sur'atlari va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlarning strukturaviy-statistik tahlili hududiy iqtisodiy siyosatni optimallashtirish, tumanlararo iqtisodiy tengsizlikni yumshatish hamda kelgusi dekompozitsion tadqiqotlar uchun aniq va ishonchli empirik baza yaratish jihatidan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy o'sish va tarkibiy o'zgarishlar masalalari iqtisodiyot fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning barqarorligi ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish, tarmoqlararo mutanosiblik hamda iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuv darajasi bilan bevosita bog'liqdir. A.M. Muhammad iqtisodiy o'sishni tarmoqlar tarkibidagi o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligining ortishi bilan izohlab, hududiy rivojlanishda tarkibiy transformatsiyalarning ahamiyatini asoslab bergan [1].

Hududlar iqtisodiy rivojlanishini baholashda iqtisodiy o'sish manbalarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. B. Bosvort va S.M. Kollinz iqtisodiy o'sishni dekompozitsiyalash usullaridan foydalanib, iqtisodiyot tarmoqlari ulushidagi o'zgarishlar umumiy rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaganlar [2]. Ularning tadqiqotlari hududlar iqtisodiyotini tarmoq va hududlar kesimida o'rganish iqtisodiy siyosat samaradorligini baholash imkonini berishini ko'rsatadi.

Tasviriy statistika usullari iqtisodiy jarayonlarning dinamikasi va barqarorligini aniqlashda keng qo'llaniladi. Ganieva Z.S. va Utemuratova Z.M. iqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish orqali iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni baholash hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari prognozlash mumkinligini qayd etganlar [3]. Dispersiya, standart chetlanish, assimetriya va ekstsess kabi ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sishning barqarorlik darajasini tavsiflashda muhim vosita hisoblanadi.

Hududiy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni o'rganish bo'yicha M.A. Daricheva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishning sifat jihatlari, tarmoqlar tarkibidagi siljishlar va ularning hududiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan [4]. Muallif iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlar ulushining ortishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligini asoslab bergan.

METODOLOGIYA

Hududiy iqtisodiyot tarkibini dekompozitsiyalashda tarmoqlar kesimida yalpi hududiy mahsulot hajmini (y_{tarmoq}) umumiy yalpi hududiy mahsulotga (Y_{hudud}) nisbatlab, ulushini baholash mumkin:

$$s = \frac{Y_{\text{tarmoq}}}{Y_{\text{hudud}}} \quad (1)$$

Tumanlardagi iqtisodiy holatni tahlil qilish uchun yalpi qo'shilgan qiymatni foydalanish mumkin. YaHM viloyat darajasidagi agregatdan tumanlarga iqtisodiy faoliyat, ya'ni qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlarning jami ishlab chiqarishdagi ulushlari asosida proporsional taqsimlash mumkin. Bunda quyidagi strukturaviy ulushlar bo'yicha taqsimlash formulasidan foydalaniladi:

$$YaHM_{\text{tuman}} = \frac{q_{\text{x}}^{\text{tuman}} + \text{sanoat}_{\text{tuman}} + \text{xizmatlar}_{\text{tuman}}}{q_{\text{x}}^{\text{viloyat}} + \text{sanoat}_{\text{viloyat}} + \text{xizmatlar}_{\text{viloyat}}} \quad (2)$$

Yalpi hududiy mahsulot hajmining tasviriy statistikasi [3]ni baholash hudud iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni statistik tomonlarini baholash imkonini beradi. Unda dispersiya, standart chetlanish kabi ko'rsatkichlar vaqtli qatorning barqarorligidan darak beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarmoqlar kesimida yalpi hududiy mahsulot hajmini umumiy yalpi hududiy mahsulotga nisbatlab, ulushi baholandi. (1-jadval)

1-jadval

Hudud iqtisodiyoti tarmoqlari yalpi qo'shilgan qiymatlarining ulushi¹

Yillar	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Tashish va saqlash, axborot va aloqa	Boshqa xizmat tarmoqlari
2010	0,45	0,07	0,05	0,06	0,07	0,28
2011	0,54	0,05	0,04	0,05	0,06	0,23
2012	0,52	0,06	0,04	0,06	0,06	0,23
2013	0,48	0,07	0,05	0,06	0,07	0,25
2014	0,48	0,07	0,05	0,07	0,07	0,24
2015	0,48	0,07	0,05	0,07	0,07	0,23
2016	0,48	0,07	0,06	0,08	0,06	0,23
2017	0,45	0,07	0,08	0,13	0,06	0,19
2018	0,43	0,07	0,09	0,14	0,05	0,19
2019	0,42	0,07	0,11	0,13	0,05	0,20

¹ Muallif ishlanmasi

Yillar	Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	Tashish va saqlash, axborot va aloqa	Boshqa xizmat tarmoqlari
2020	0,42	0,07	0,11	0,12	0,04	0,21
2021	0,41	0,08	0,11	0,13	0,04	0,21
2022	0,41	0,07	0,10	0,14	0,04	0,21
2023	0,41	0,08	0,10	0,14	0,05	0,21
2024	0,38	0,09	0,09	0,15	0,05	0,21
2025	0,37	0,10	0,09	0,15	0,05	0,22

1-jadvaldagi tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymatlariga ulushiga nazar tashlansa, eng katta ulush Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligiga toʻgʻri kelmoqda. Biroq, tarmoqning hissasi 2011-yildagi 0,54 dan 2025-yilga kelib 0,37 gacha, yaʼni 0,17 ulushga pasayib bormoqda. Sanoat tarmogʻining ulushi esa eng past ulushi 2011 yilda kuzatilib, 2025 yilga kelib, 0,10 birlikkacha oshgan. Shuningdek, savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari tarmogʻida ham oʻsish (0,06 dan 0,15 gacha) kuzatilgan. Bu hudud iqtisodiyoti agrar sohaga ixtisoslashganligi yumshatilib, tarkibi diversifikatsiya qilinayotganini bildiradi. Bu esa qishloq xoʻjaligidan asta-sekin xizmat koʻrsatish va sanoatlashgan modelga oʻtayotganligidan darak beradi.

Tumanlardagi iqtisodiy holatni tahlil qilish uchun yalpi qoʻshilgan qiymatni foydalanish mumkin. Uning natijalari tumanning yalpi hududiy mahsulotini emas balki iqtisodiy faoliyat ulushi asosidagi proporsional taqsimlanishini ifodalaydi.

Tumanlar kesimida yalpi hududiy mahsulot va u bilan bogʻliq koʻrsatkichlar 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval


Surxondaryo viloyati iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlarini tumanlar hissasi¹

T/r	Tumanlar	YaHM (mlrd soʻm)	YaHM oʻsishi (foiz)	Aholi jon boshiga YaHM (ming soʻm)	Aholi jon boshiga YaHM oʻsishi
1	Surxondaryo	59 031,6	108,6	20 041,3	106,1
2	Termiz sh.	7 137,0	122,2	34 428,5	118,8
3	Oltinsoy	1 856,6	104,0	9 405,4	101,5
4	Angor	2 562,2	111,9	17 430,1	109,5
5	Bandixon	1 344,6	108,8	15 763,0	105,9
6	Boysun	1 756,2	102,7	13 817,4	100,7
7	Muzrabot	3 004,8	122,9	19 163,5	120,4
8	Denov	6 813,2	113,4	15 826,2	110,7
9	Jarqoʻrgʻon	3 824,7	103,6	15 674,9	101,2
10	Qumqoʻrgʻon	3 393,7	86,1	12 972,8	84,1
11	Qiziriq	1 790,3	109,2	14 107,7	106,7
12	Sariosiyo	3 219,1	100,4	13 821,6	98,3
13	Termiz	2 369,3	95,5	27 171,0	92,8

¹ Muallif ishlanmasi

T/r	Tumanlar	YaHM (mlrd so‘m)	YaHM o‘sishi (foiz)	Aholi jon boshiga YaHM (ming so‘m)	Aholi jon boshiga YaHM o‘sishi
14	Uzun	2 389,6	126,1	12 419,9	123,1
15	Sherobod	3 816,6	95,3	17 760,0	93,5
16	Sho‘rchi	2 905,0	109,4	12 403,9	106,7

Yalpi hududiy mahsulotning tumanlar bo‘yicha taqsimlanishini 1-rasmda ko‘rish mumkin.



1-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida yalpi hududiy mahsulot hajmi¹

Olingan natijalar iqtisodiy o‘shish manbalarini dekompozitsiyalashda qo‘llaniladi. 3-jadvalda keltirilgan tasviriy statistika natijalari Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti ko‘lami kuzatuv davrida sezilarli darajada kengayganligini ko‘rsatadi. Xususan, yalpi hududiy mahsulot hajmining minimal qiymati 3394,7 mlrd so‘mni, maksimal qiymati esa 66186,5 mlrd so‘mni tashkil etgan. Mazkur holat tahlil qilinayotgan davr mobaynida ishlab chiqarish hajmlarining izchil va yuqori sur‘atlarda o‘shib borganligini anglatadi. Kuzatuv davrining ikkinchi yarmida iqtisodiy o‘shish sur‘atlari dastlabki yillarga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Buni arifmetik o‘rtacha ko‘rsatkichning

¹ Muallif ishlanmasi

24122,06 mlrd soʻmga teng boʻlib, mediananing 18791,9 mlrd soʻmlik qiymatidan yuqori ekanligi ham tasdiqlaydi.

3-jadval

Tasviriy statistika koʻrsatkichlari¹

T/r	Koʻrsatkichlar	Qiymati
1	Oʻrtacha	24 122,06
2	Standard xato	4 795,20
3	Mediana	18 791,90
4	Moda	-
5	Standard chetlanish	19 180,82
6	Tanlanma dispersiya	367903819
7	Ekstsess	-0,11
8	Assimmetriya	0,92
9	Interval	62 791,80
10	Minimum	3 394,70
11	Maximum	66 186,50
12	Yigʻindi	385953
13	Kuzatuvlar soni	16

Asimmetriya va ekstsess koʻrsatkichlari iqtisodiy oʻsishning nisbatan barqaror va tadrijiy xususiyatga ega boʻlganligini koʻrsatadi. Asimmetriya koeffitsientining 1 ga yaqin qiymatga egaligi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun xos boʻlib, maʼlumotlar qatorida oʻsish tendensiyasining mavjudligini ifodalaydi. Shu bilan birga, ekstsess koʻrsatkichining nolga yaqin va biroz manfiy qiymatda shakllanishi hudud iqtisodiyotida keskin tebranishlar, kutilmagan sakrashlar yoki jiddiy pasayishlar kuzatilmaganligini bildiradi. Bu esa iqtisodiy oʻsishning asosan tizimli va izchil xarakterga ega boʻlganligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida tarkibiy oʻzgarishlar jarayoni izchil davom etayotganini koʻrsatdi. Tahlillar yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq xoʻjaligi ulushining bosqichma-bosqich kamayib borayotganini, sanoat va xizmat koʻrsatish tarmoqlarining hissasi esa ortayotganini tasdiqladi. Bu holat hudud iqtisodiyotida diversifikatsiya jarayonlari kuchayib borayotganini hamda iqtisodiy faoliyatning yangi yoʻnalishlari shakllanayotganini anglatadi.

Tumanlar kesimidagi koʻrsatkichlar hududning iqtisodiy salohiyati ortib borayotganini, ayrim tumanlarda iqtisodiy oʻsish surʼatlari viloyat oʻrtacha darajasidan yuqori ekanligini koʻrsatdi. Tasviriy statistika natijalari iqtisodiy oʻsishning umumiy tendensiyasi barqaror xarakterga ega ekanligini va viloyat iqtisodiyotida keskin tebranishlar kuzatilmaganligini tasdiqladi. Shu bilan birga, tumanlar oʻrtasida iqtisodiy faollik va aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan yalpi hududiy mahsulot koʻrsatkichlarida muayyan farqlar saqlanib qolayotgani aniqlandi.

¹ Muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, birinchi navbatda, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi loyihalarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, iqtisodiy faolligi nisbatan past bo'lgan tumanlarda investitsiya jozibadorligini oshirish va zamonaviy infratuzilma loyihalarini rivojlantirish hududlararo tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, hududning transport-logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirish mumkin. To'rtinchidan, tumanlar kesimida iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringini takomillashtirish va statistik tahlil usullaridan keng foydalanish hududiy rivojlanish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning samaradorligini oshiradi.

Surxondaryo viloyatida kuzatilayotgan tarkibiy o'zgarishlar hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mavjud ijobiy tendensiyalarni davom ettirish, iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuv darajasini yanada oshirish va hududlar salohiyatidan samarali foydalanish kelgusida viloyatning iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmad Nu'man Mukhtar Bin Mohammad Economic growth of Malaysia // Политика, экономика и инновации. 2020. №3 (32).
2. Босворт Б., Коллинз С. М. Сравнительный анализ экономического роста Китая и Индии // Восточная и Южная Азия в современном мире (внутриполитические и внешние факторы развития). 2010. №2010.
3. Ганиева Зулфия Самиевна, Утемуратова Злиха Муратбаевна Роль описательной статистики в экономике // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2026. №14.1.
4. Даричева М. А. Экономический рост в России // Экономика и социум. 2017. №6-1 (37).
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**